

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA INTARFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Mannopova Ziyodaxon

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani

12-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ta'lim jarayonini amalga oshirish, tahlim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini tahlim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, jamoatchilik asosida ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish, uni mustahkamlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Biz quyida matematika darslarida qo'llaniladigan metodlardan namunalar keltiramiz. Boshlang'ich sinflar qo'llaniladigan interfaol usullardan biri —Tez yurar|| usuli o'quvchilar bilimni oshirish va fanga qiziqtirishda g'oyt ahamiyatlidir.

Bu usul alohida olingan bir yoki bir necha dars uchun ahamiyatli bo'lmasdan aksariyat darslarda ishlatilganda, boshqacha aytganda darsning atributi bo'lib olgandagina o'quvchilarda hozirjavoblik, tezkorlik, mushohada, ijodiylik hosil qilish mumkin.

—Tez yurar|| usuli quydagicha amalga oshiradi: xar bir o'quvchiga o'quvchilar qatori bo'yicha o'tilgan mavzular asosida tezlik bilan savollar beriladi. Ularning javobi ham juda tez bo'lishi darkor, ya'ni topqir bo'lishlari va javobni 2 sekund davomida topishlari kerak (javob topa olmagan o'quvchi avtobusdan tushib qolishi mumkinda, chunki —tez yurar|| avtobus kutib o'tirmaydi).

Shunday qilib, javobni juda tez topa olmaganlar tikka qoladi, javob topganlar esa o'tiradi. —Tez yurar|| usulidagi savolga javob topa olmaganida tikka qolish, uning baho me'yor va uni o'quvchi o'zi bilib turishi, bilmagan o'quvchi boshqalarning javoblarini e'tibor bilan tinglashi kabi xolatlar bolalarda qiziqish uyg'otadi. Qolaversa eng asosiysi, o'quvchi har bir javobi bilan o'z bilimiga o'zi baho qo'yib boradi.

O'quvchilardagi qiziqish natijasida diqqat ortadi, bu esa xis-tuyg'uga ta'sir qiladi va esda qoldirish jarayoni ortadi.

—Tez yurar|| usulining yana bir psixolog ahamiyati takrorlash natijasida o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarning puxtalanishidir. Ma'lum mavzu o'tilgach, o'sha mavzu atrofida 50-60 ta savolga javob berish uchun o'quvchi uni to'la idrok qilishi kerak.

Savollar qisqacha bo'lishi mumkin;

1. Doira deb nimaga aytiladi?
2. Aylana deb nimaga aytiladi?
3. Kvadrat deb nimaga aytiladi?
4. Shaklning yuzi qanday topiladi?
5. Teng yonli uchburchak deb nimaga aytiladi?

6. Teng tomonli uchburchak deb nimaga aytiladi?
7. To'g'ri to'rtburchak deb nimaga aytiladi?
8. Kvadratning perimetri qanday topiladi?

Ushbu o'tilgan dars bo'yicha savollardan tashqari 30-40 ta avval o'tilgan mavzular bo'yicha ham savollar beriladi. Yangi mavzu o'tilgach o'sha mavzu (har darsda albatta oldin o'tilgan mavzular) bo'yicha savollar avvalgi savollarga qo'shilgan holda beriladi. Shu zaylda har darsda albatta oldin o'tildan mavzularga — eksprom-ekskurs|| qilinadi. Bu kabi takrorlash hotirada qoldirishning puxtaligiga ta'sir qiluvchi metodlardan sanaladi.

Agar o'quvchilarga uch marta savol berilsa-yu, o'quvchi uch marta tikka qolsa, u o'quvchi — yomon|| baho oladi yoki uch marta to'la javob bo'lsa, — 5|| baho oladi. Bu usulni darsning uy vazifasini so'rash qismida, yangi mavzu o'tilgach, mustahkamlash bosqichlarida yoki takrorlash darslarida o'tkazish mumkin.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu usul natijasida o'quvchi tez o'ylashga — hozir javoblikka o'rganadi, — avtobusdan tushib qolmaslik uchun — xar doim izlanadi. Bir o'quvchining javobini boshqalar eshitib, o'sha savol bo'yicha nazariy ma'lumotlari mustahkamlanadi. Bu usul o'quvchidan ham, o'qituvchidan ham faollikni talab etadi. Darsda faollashtirish yo'l-yo'riqlaridan jaxon andozasi talablaridan biridir.

— Tez yurar|| usulida o'quvchi bilimni o'zi aniqlaydi, o'zini -o'zi baholaydi, ya'ni bilimi qay darajada ekanligiga tashhis qo'yiladi va keyingi yangi mavzu bayonida shu tashhis asosida ularga bilim beriladi. Bu usulni o'tkazish uchun o'quvchilarga beriladigan savollar:

- a) tushunarli va aniq bo'lishi;
- b) qisqa, aniq javob talab qiluvchi bo'lishi;
- c) javobi — ha|| yoki — yo'q — so'zlari bilan kelmasligi;
- d) savollar kitobiy bo'lmasdan amaliyotdan olingan bo'lishi;
- e) yangi yoki eski o'tilgan mavzular bo'yicha tayyorlanishi;
- f) o'quvchilarning mushohada asosida javob berishlarini ta'minlashi kerak

— Kesma deb nimaga aytiladi? ||, — Nur deb nimaga aytiladi?|| kabi savollar darslikda berilgan qoidani so'zma so'z aytib berishni talab qiladigan savollar bo'lib, nutq o'stirishga yordam bermaydi. Chunki o'quvchini mustaqil fikr yuritishga emas, qoidani o'qiganda yoki eshitganda esda olib qolganini aytib berishga undaydi.

Masalan, tezlikni toppish bo'yicha olgan bilimlarini sinash va mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi (— tez yurar|| usulida)

- 1) Tiko avtomashinasining tezligi 40 km/soat, motatsiklning tezligi esa 30 km/soat. Qaysi birining tezligi katta ?
- 2) Mashina 35 km masofani 5 soatda bosib o'tdi. U qanday tezlik bilan harakatlangan?
- 3) Ahmad 40 km masofani 10 soatda. Muhlisa 35 km masofani 7 soatda yurib o'tdi. Qaysi birining tezligi katta va qancha?

So'rash davomidagi noto'g'ri javob o'quvchining hatosini tuzatishga, tinglab o'tirgan o'quvchilarni jalb qiladi, barcha o'quvchilarning (suhbatda) so'rashda faol ishtrok etishini

ta'minlaydi. Bundan har bir o'quvchi bilan alohida ishlash; o'tilganlarni ko'proq takrorlash va mustahkamlash mumkin bo'ladi, yani fikrlash tez o'sadi.

—Tez yurar|| usulining ahamiyati haqida fikr yuritilar ekan, quyidagi jihatlar matematika darsining samaradorligini ta'minlashiga ishinch hosil qildik.

- 1) Hozirjavoblikka o'rgatiladi.
- 2) Hamma o'quvchi birdan baholanadi.
- 3) Nutqi rivojlanadi.
- 4) O'quvchining tafakkur faoliyatini oshiradi.
- 5) Ilmiy-nazariy bilimga ega qiladi.
- 6) O'quvchi bilimiga tashhis qo'yiladi.
- 7) Fikrini erkin izoxlay oladi.
- 8) O'quvchilarning psixologiyasiga e'tibor beriladi.

—Tez yurar|| texnologiyasidan nafaqat matematika darslarida balki xat qanday fan o'qituvchisi foydalanishi mumkin. Bu texnologiya —reyting usuli|| da o'quvchilarni baholashda juda qulay, chunki o'quvchi bir marta tikka qolsa, 0, 2% yutkazadi. Aksincha, bir marta o'tirsa, 0, 2% yutadi – uch marta o'tirsa, 0, 6% ball yig'adi.